

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

JABBOROV AZAMAT ALIJONOVICH

**DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING MOLIVAVIY
NAZORATI KONSEPTUAL ASOSLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора по экономическим
наукам (Doctor of Science)**

**Content of dissertation abstract of the doctor of science (DSc) on economical
science**

Jabborov Azamat Alijonovich

Davlat budjeti xarajatlarning moliyaviy nazorati konseptual asoslari3

Жабборов Азамат Алижонович

Концептуальные основы финансового контроля расходов государственного бюджета33

Jabborov Azamat Alijonovich

Conceptual framework for financial control of state budget expenditures65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works71

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY

JABBOROV AZAMAT ALIJONOVICH

**DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING MOLIYAVIY
NAZORATI KONSEPTUAL ASOSLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025-yil

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.2.DSc/Iqt923 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Tashkent International Universityda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Raxmonov Dilshodjon Alidjonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich iqtisodiyot fanlari doktori, akademik Xusainov Shavkat Abdushukurovich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent Alimardonov Muhamadi Ibragimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" 01 kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55, faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil "12" 12 kuni "78" raqamli reyestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.X. Abduraxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

A.R. Norov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan iqtisodiy noaniqliklar, iqtisodiy aloqalarning prognoz qilib bo'lmashligi, tashqi savdodagi mavhumlik, moliya bozorlarining nobarqarorligi davlatlarning moliyaviy siyosatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatlar moliya tizimining xavfsizligini va barqarorligini oshirish uchun moliyaviy intizomni mustahkamlash, budget mablag'larining sarfi ustidan samarali va ishonchli moliyaviy nazorat tizimini yaratishni har qachongidan ham dolzarb zaruriyatga aylantirmoqda. Xususan, korrupsiogen vaziyatni xalqaro baholash bo'yicha holatga to'xtaladigan bo'lsak "2012-yildan beri 180 mamlakatning 148 tasi ko'rsatkichlari o'zgarmagan yoki pasaygan, mamlakatlar uchdan ikki qismining natijalari maksimal bahoning yarmidan (50 balldan) pastligini"¹ ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyatini sodir etgan shaxslar soni 2020-yilga nisbatan qariyb to'rt barobarga o'sgan². Mazkur holatda budget xarajatlardan manzilli, maqsadli va samarador foydalanishni ta'minlash, davlat moliyaviy nazorati tizimini funksional va tashkiliy takomillashtirish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash davlat moliyasi barqarorligini taminlashga xizmat qiladi.

Jahonda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning bosqichlari, vakolatlar va javobgarlik taqsimoti, moliyaviy xavflarni boshqarish, davlat budjeti xarajatlari samaradorligini baholashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazoratining uslubiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy nazoratning amalga oshirilish bosqichlarini, moliyaviy xavflarni boshqarish usullarini rivojlantirish, budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi, ulardan foydalanish tizimi samaradorligini baholash, tegishli tuzilmalar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, moliyaviy nazoratni raqamlashtirish, natijalar statistikasini yuritish tizimini takomillashtirish kabi ilmiy yo'nalishlarga ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, moliyaviy integratsiyalashuv sharoitida xalqaro ko'lamda davlat moliyaviy nazorati tizimining yangi arxitekturasini, uni tashkil etilishining zaruriy va qo'shimcha usul hamda modellarini yaratishni ilmiy jihatidan o'rganish kabi ilmiy yo'nalishlar faollashmoqda.

O'zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazoratini moliyaviy va iqtisodiy islohotlar yo'nalishiga tezkor va parallel transformatsiya qilish davlat moliyaviy ta'minotining xavfsizligi hamda barqarorligini ta'minlashda dolzarb masala hisoblanadi. Bunda, amaldagi davlat moliyaviy nazorati organlari tarkibini, funksiyalari va institutsional vakolatini qayta ko'rib chiqish, ular tarkibiga moliyaviy operatsiyalarga maksimal yaqinlashtirilgan tizimlarni integratsiya qilish,

¹ www.transparency.org - "Transparency international" tashkiloti rasmiy sayti. "Corruption perceptions index 2024" hisoboti. Murojaat qilingan sana: 2025-yil 20-fevral.

² www.sud.uz - O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy sayti. Murojaat qilingan sana: 2025-yil 20-aprel.

moliyaviy xavflarni boshqarish tizimini joriy etish orqali xato va kamchiliklarni oldini olish, dastlabki va joriy moliyaviy nazorat qamrovini kengaytirish dolzarblik kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat moliyaviy nazorati tizimini xalqaro tan olingan modellarga moslashtirish, moliyaviy nazoratning barcha turlaridan foydalanishning optimal holatini ilmiy jihatdan tadqiq etish, budjet xarajatlari moliyaviy nazoratini sifat jihatdan baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 26-iyundagi PF-105-son “Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi hamda budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan zamonaviy xizmatlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son “2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa sohaga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Davlat budjeti xarajatlari va ularning davlat tomonidan moliyaviy nazoratini takomillashtirishning yo‘nalishlari bilan bog‘liq ko‘p qirrali tadqiqot ishlari jahonning nufuzli ilmiy, tahliliy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, sohaga aloqador xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, xalqaro moliya institutlaridan Jahon banki (WB), Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF), Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlar qo‘mitasi (COSO), Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA), Xalqaro oliy audit organlari tashkiloti (INTOSAI), AQSHning

³ www.worldbank.org, openknowledge.worldbank.org, www.imf.org, www.elibrary.imf.org, www.coso.org, www.theiia.org, www.intosai.org, www.gao.gov, www.pempal.org, www.pefa.org, www.transparency.org, www.heritage.org, publicadministration.un.org, hdr.undp.org, www.wipo.int, www.uva.nl, www.uu.se, www.mq.edu.au, www.etamu.edu, www.eur.nl, www.ntnu.no, www.uni.lu, www.unifi.it, www.vu.lt, www.southwales.ac.uk, www.en.ktu.edu, www.soas.ac.uk, www.ihu.gr.

Hukumat hisobdorlik ofisi (GAO), Davlat xarajatlarini boshqarish bo'yicha o'zaro o'rganish va tajriba almashish hamjamiyati (PEMPAL), Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlikni baholash dasturi (PEFA), xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan reyting va indekslardan Korruptsiyani qabul qilish indeksi (Corruption Perception Index (CPI)), Budjet ochiqligi indeksi (Open Budget Index – OBI), Iqtisodiy erkinlik indeksi (Economic Freedom Index – EFI), Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index – EGDI), Inson kamoloti indeksi (Human Development Index – HDI), Global innovatsiyalar indeksi (Global Innovation Index – GII), Boshqaruv sifati indikatorlari (Worldwide Governance Indicators – WGI), xalqaro oliy ta'lim muassasalaridan University of Amsterdam, Uppsala University, Macquarie University, Texas A&M University, Erasmus University Rotterdam, Norwegian University of Science And Technology, University of Luxembourg, University of Florence, Vilnius University, University of South Wales, Kaunas University of Technology, SOAS University of London, International Hellenic University (IHU) tomonidan taqdim etib borilmoqda.

Davlat budjeti xarajatlari va ularning moliyaviy nazoratini takomillashtirishning yo'nalishlari mavzusi bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi natijalar olingan, jumladan, budjet xarajatlarini moliyaviy nazorat qilishning fiskal siyosatga ta'siri aniqlangan (Government financial management. Issues and Country Studies), boshqaruvchilarning moliyaviy qonun-qoidalarga amal qilishi, aktivlar muhofaza qilinishi va moliyaviy tartib-intizom ta'minlanishida moliyaviy nazoratning o'rni baholangan (Public Financial Management and Internal Control), mamlakatlarda mavjud an'anaviy tizimlarga nisbatan ancha yuqori darajadagi xarajatlarni nazoratini joriy etish imkonini beradigan yangi moliyaviy nazorat tizimini yaratish va bunda "qiymatiga yarasha samara" (value for money) tamoyiliga katta e'tibor berish taklif etilgan (Public Internal Financial Control), davlat moliyaviy nazorati yo'nalishlari pul va qarzlarni boshqarish, xarid, ish haqi va ichki nazoratga bo'linishi ta'kidlangan (Public Financial Management Reform Literature Review)⁴.

Jahon amaliyotida davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazoratini nazariy va metodologik, uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlar: moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati, davlat ichki moliyaviy nazorati, moliyaviy boshqaruv va nazorat, moliyaviy inspeksiya, moliyaviy xavflar, tashqi audit, ichki audit, ichki nazorat tushunchalarining ilmiy talqini; xalqaro moliyaviy nazoratni tashkil etish modellarining amaliyotga tatbiqi va samaradorligi, xorijiy davlatlar tajribalari, xalqaro reyting va indekslarga davlat moliyaviy nazoratining ta'siri, davlatlar moliyaviy nazorati tizimi samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi; moliyaviy nazorat va auditning yondashuvlari; moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash mexanizmining tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish; moliyaviy xavflarni boshqarish, davlat

⁴ Premchand A. Government financial management. Issues and Country Studies. International Monetary Fund. 1990., Hepworth N. Public Financial Management and Internal Control. Palgrave Macmillan., Koning R.D. Public Internal Financial Control. Slovenia 2007., Pretorius S. va Pretorius N. Public Financial Management Reform Literature Review. Department for International Development –DFID. 2009.

moliyaviy nazorati tizimi tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Budget xarajatlari, moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy xavflarni boshqarish hamda davlat moliyasini boshqarishning nazariy masalalari va muammolari bo'yicha quyidagi xorijiy olimlar o'z tadqiqotlarini olib borishgan:

1. Ingliz tilida tadqiqotlar olib borgan olimlardan: A.Premchand, N.Hepworth, R.D.Koning, S.Pretorius, N. Pretorius, J.K.Kristensen, M.Bowen, S.Long, Sh.Mustapha, U.Zrinski, L.Doe, S.Pattanayak, M.Woods, K.Dowd, K.A.Horcher, J.M.Eldowney, J.Jowell, D.Oliver, V.Batova, A.Volkov, L.Krugliak, Y.Safronova⁵.

2. Rus tilida tadqiqotlar olib borgan olimlardan: N.N.Shestakova, A.I.Lekashev, D.V.Dementyev, N.V.Milyakov, A.P.Zudilin, F.N.Axmedov, V.I.Samaruxa, I.V.Derevsova, S.Ye.Prokofyev, M.V.Melnik, A.S.Panteleev, A.L.Zvezdin, N.Yu.Isakova, Yu.A.Dolgix, A.G.Lachixina, S.O.Shoxin, N.S.Matveeva, E.G.Knyazeva, L.I.Yuzvovich, R.Yu.Lugovsov, V.V.Fomenko, A.K.Solodov⁶.

Mazkur masala yuzasidan tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlar va tadqiqotchilardan: A.Ibragimov, S.Erkaboyev, B.T.Turabov, N.E.Jiyanova, N.O.Tursunboyeva, M.Sh.Mamatqulov, A.Vaxobov, T.Malikov, Sh.Q.Jalilov, A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev, N.H.Xaydarovlar⁷ tadqiqotlari o'rganilgan.

⁵ Premchand A. Government financial management. Issues and Country Studies. International Monetary Fund. 1990., Hepworth N. Public Financial Management and Internal Control. Palgrave Macmillan., Koning R.D. Public Internal Financial Control. Slovenia 2007., Pretorius S. va Pretorius N. Public Financial Management Reform Literature Review. Department for International Development –DFID. 2009., Kristensen J.K., Bowen M., Long S., Mustapha Sh., Zrinski U. PEFA, Public Financial Management and Good Governance. 2019. International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank., Doe L., Pattanayak S. Financial control in african countries. Public Financial Management Technical Guidance Note February 2008 4., Woods M., Dowd K., Financial Risk Management for Management Accountants. The Society of Management Accountants of Canada, the American Institute of Certified Public Accountants and The Chartered Institute of Management Accountants. 2008 y., Horcher K.A., Essentials of Financial Risk Management. John Wiley & Sons, Inc. 2005 y., McEldowney, J., Jowell, J., & Oliver, D. (2000). The control of public expenditure. The Changing Constitution, Batova, V., Volkov, A., Krugliak, L., & Safronova, Y. (2019). Independent auditing of public expenditure as a tool to improve the state financial control. Práxis Educacional, 15(34), 608-623.

⁶ Шестакова Н.Н. Государственный финансовый контроль. Учебное пособие. Красноярский государственный аграрный университет. Красноярск 2024г., Лекашев А.И. Анализ зарубежного опыта организации государственного финансового контроля. Мир новой экономики Т.19 № 3'2025., Деметев Д.В. "Государственный финансовый контроль: оценка эффективности и направления развития" иктисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Краснодар. 2004 й., Мильков Н.В. Финансы. Учебник. Москва: ИНФРА М 2004 г., Зудилин А.П., Ахмедов Ф.Н. Финансовый контроль. Учебной пособие. Москва: Издательство Российского университета дружбы народов 2000 г., Прокофев С.Е. Новации в сфере государственного финансового контроля, осуществляемого казначейством России. Финансы и кредит 10 (634) – 2015 г., Мелник М.В., Пантелеев А.С., Звездин А.Л. Ревизия и контроль. Учебного пособия. Москва: ИД ФБК-ПРЕСС 2003 г., Самаруха В.И., Деревсова И.В. Государственный финансовый контроль в Российской Федерации. Учебное пособие. Иркутск Издательство БГУ 2018 г., Исакова Н.Ю., Долгих Ю.А., Лачихина А.Г. Финансы и финансовая система государства. Учебное пособие. Екатеринбург. Издательство Уралского университета. 2019 г., Шохин С.О. Контроль, надзор и аудит в финансовой сфере. Журнал «Финансовое право», №12, 2018 г., Матвеева Н.С. Международный опыт осуществления государственного финансового контроля. Финансовый журнал №2 2020 г., Князева Э.Г., Юзвович Л.И., Луговсов Р.Ю., Фоменко В.В. Финансово-экономические риски. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уралского университета. 2015г., Солодов А.К., Основы финансового риск-менеджмента. Издание Александра К. Солодова М.: 2018г.

⁷ Ibragimov A., Erkaboyev S. Public financial control in the public financial management system: an analysis of the european experience. International journal of theoretical and practical research. 2023 Issue: 3., Turabov B.T.

Shunday bo'lsada, o'rganilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda budjet xarajatlarining davlat moliyaviy nazoratini amaldagi va zamonaviy xususiyatlarini aks ettirgan turli qarashlar shakllangan. Shu bilan birga, davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy xavflarni boshqarishning tutgan o'rni, budjet tizimida ichki moliyaviy nazorat tizimini joriy etish, moliyaviy nazoratni gorizontal va vertikal taqsimlashga oid konseptual ilmiy-uslubiy va tashkiliy yondashuv yetarli tatqiq etilmagan. Xususan, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga oid ilmiy ishlarda olimlar tomonidan, uning ichki ya'ni budjet tashkiloti ichidagi vosita va usullariga, davlat moliyaviy nazorati konsepsiyasida moliyaviy nazorat bosqichlarining ilmiy va amaliy jihatlariga yetarli e'tibor qaratilmagan. Muammoning dolzarbligi, davlat xarajatlarining hamda moliyaviy xato va kamchiliklarning ortib borayotganligi, davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishning zaruriyati va kutilayotgan natijalarni muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi mazkur mavzu yuzasidan tadqiqot o'tkazishga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi mavzusi Toshkent xalqaro universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazorati konseptual asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

davlat moliyaviy nazoratining ilmiy-nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish;

O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining tashkil etilishini o'rganish; moliyaviy nazoratni tashkil etishning xalqaro konseptual modellarini tadqiq etish;

xorijiy davlatlarning davlat moliyaviy nazorati tizimi samaradorligini baholash hamda ularda moliyaviy nazoratni tashkil etish tajribalarini o'rganish;

O'zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining dinamikasi va tarkibini tahlil qilish;

davlat moliyaviy nazoratining qamrovini, tashkiliy va natijaviy jihatdan tahlil qilish;

davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy qoidabuzarliklar o'zgarishi tendensiylariga ta'sirini baholash;

O'zbekiston Respublikasida Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2023, Jiyanova N.E va Tursunboyeva N.O. Роль и особенности государственного финансового контроля в управлении государственными финансами. "Science and Education" jurnali. 2023-yil 4-son., Mamatqulov M.Sh. Evaluation of the effectiveness of financial control systems in the public sector. Journal of multidisciplinary research. Volume 2, Issue 9, September – 2024., Vaxobov A., Malikov T. Moliya darslik Noshir 2011-yil., Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Budjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya" 2011-y., Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B., Budjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. T.: "infoCOM.UZ" MCHJ nashriyoti. 2010-yil., Malikov T.S., Xaydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T. "Iqtisod-moliya" 2009-y.

davlat moliyaviy nazorati tizimini funksional va tashkiliy takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti budget xarajatlari ijrosining davlat moliyaviy nazorati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazoratini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli yondashuv, umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslash, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, kompleks tahlil, statistik qayta ishlash, ekonometrik modellashtirish, solishtirma tahlil, reyting va renkingni miqdor va sifat jihatdan baholash hamda boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

budget mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni tizimli ravishda kuchaytirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarida "Ichki nazorat – integratsiyalashgan model" asosida dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni konseptual rivojlantirish taklif etilgan;

moliyaviy xavflarni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish orqali moliyaviy xato va kamchiliklar yuzaga kelishi hamda samarasiz budget xarajatlarini amalga oshirish ehtimolini oldindan aniqlash hamda bartaraf etish mexanizmlari asoslangan;

davlat organlari va tashkilotlarini moliyalashtirish jarayoniga "uch bo'g'in" modelini tatbiq etish orqali budget moliyaviy ta'minoti ustidan nazoratni institutsional va funksional taqsimlash taklif etilgan;

davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy xavflarni boshqarish va ichki moliyaviy nazoratga ixtisoslashgan proaktiv konsepsiyasini joriy etish asosida yakuniy moliyaviy nazorat tadbirlarining manzilliligi va samaradorligini oshirish taklif etilgan;

moliyaviy xavflarni tahlil qilish va baholashda muhimlik vazni ko'rsatkichini kiritish asosida xavflarni minimallashtirishda uning sabablarini tabaqalashtirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xorijiy davlatlarning davlat moliyaviy nazorati bo'yicha tajribalarini xalqaro indeks va reytinglar natijalari asosida baholash metodologiyasi taklif etilgan;

moliyaviy xavflarni boshqarish natijalarini ochiqlash orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish asosida moliyaviy nazorat ko'lamini oshirish taklif etilgan;

moliyaviy xavflarni alohida tasniflash asosida budget xarajatlarini maqsadsiz va samarasiz sarflash xavflarini tahlil hamda monitoring qilish imkoniyatini oshirish orqali ularni bartaraf etish taklif etilgan;

moliyaviy xavflar darajasini aniqlashda xavf ta'siri va uning yuzaga kelish ehtimolini alohidalash orqali xavflarni minimallashtirish samaradorligini oshirish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot natijalarining tahlili jarayonida xorijiy va mahalliy darajada amalga oshirilgan tadqiqotlar, xalqaro tashkilotlar rasmiy manbalaridan foydalanilganligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi hamda tegishli takliflarning vakolatli tashkilot tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda budjet xarajatlarining davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirishga qaratilgan maxsus, mustaqil ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan davlat moliyaviy nazorati tizimini isloh etishga oid strategiya, qonunchilik hujjatlarini yaratish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturini ishlab chiqish va uning amaliy bazasini mustahkamlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Budjet xarajatlarining davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

budjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni tizimli ravishda kuchaytirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarida "Ichki nazorat – integratsiyalashgan model" asosida dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni konseptual rivojlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son "2025-2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 6-avgustdagi 04/23-15-17118-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz davlat organlari va tashkilotlarini moliyalashtirish tizimiga "Ichki nazorat – integratsiyalashgan model"ni (Internal Control – Integrated Framework)" tatbiq etish asosida moliyaviy nazorat muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalarini tatbiq etish hamda moliyaviy monitoring qilish tartiblari belgilanishiga erishilgan.

moliyaviy xavflarni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish orqali moliyaviy xato va kamchiliklar yuzaga kelishi hamda samarasiz budjet xarajatlarini amalga oshirish ehtimolini oldindan aniqlash hamda bartaraf etish mexanizmlariga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-son "Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 6-avgustdagi 04/23-15-17118-son ma'lumotnomasi). Natijada, moliyaviy xavflarni boshqarishni xavflarni aniqlash, baholash, kamaytirish, monitoring qilish hamda ochiqlashdan iborat bosqichlarda amalga oshirish tartibini belgilanishiga erishilgan.

davlat organlari va tashkilotlarini moliyalashtirish jarayoniga “uch bo‘g‘in” modelini tatbiq etish orqali budjet moliyaviy ta‘minoti ustidan nazoratni institutsional va funksional taqsimlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son “2025 - 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 6-avgustdagi 04/23-15-17118-son ma‘lumotnomasi). Natijada, respublika va mahalliy darajadagi budjet tashkilotlarining moliya va buxgalteriya tuzilmalarini moliyaviy nazorat bo‘yicha vakolat va javobgarliklarini aniq chegaralashga va belgilashga erishilgan.

davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy xavflarni boshqarish va ichki moliyaviy nazoratga ixtisoslashgan proaktiv konsepsiyasini joriy etish orqali yakuniy moliyaviy nazorat tadbirlarining manzilliligi va samaradorligini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-son “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyulda 446-son “2025-2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 6-avgustdagi 04/23-15-17118-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni kuchaytirish hisobiga moliyaviy xato va kamchiliklarni kamaytirish orqali yakuniy moliyaviy nazoratda asosiy e‘tiborni katta miqdordagi o‘g‘irlik, kamomad va o‘zlashtirishlarga qaratishga erishilgan.

moliyaviy xavflarni tahlil qilish va baholashda muhimlik vazni ko‘rsatkichini kiritish asosida xavflarni minimallashtirishda uning sabablarini tabaqalashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 279-son “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 6-avgustdagi 04/23-15-17118-son ma‘lumotnomasi). Natijada, moliyaviy xavflarni ular orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlar (o‘g‘irlik, kamomad va o‘zlashtirish kabi) miqdori orqali saralash va eng katta zararga olib keluvchi xavflarni ajratib olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shundan 2 ta monografiya, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 6 ta ma‘ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 211 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning quyidagi jihatlarini ochib berilgan: mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi shakllantirilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik xarakteriga ega natijalar va ularning amaliy ahamiyati hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davlat moliyaviy nazoratining ilmiy-nazariy asoslari va zamonaviy mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida davlat moliyaviy nazoratning ilmiy-nazariy asoslari, moliyaviy nazoratni tashkil etishning zamonaviy mexanizmlari hamda mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati tizimining tashkil etilishi o'rganilgan. Xususan, moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati va budget tizimida uning o'rni bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari va talqinlari, ilmiy-nazariy ta'riflari, mamlakatimizda davlat moliyaviy nazorati tizimini tartibga solishning huquqiy asoslari, davlat moliyaviy nazorati tizimini tashkil etishning zamonaviy mexanizmlari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Davlat moliyaviy nazoratining iqtisodiy, moliyaviy mohiyati xususida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ulardagi farqlar asosan iqtisodiyot va moliya hamda ularning subkategoriyalari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarga bevosita bog'liq bo'ladi nazarimizda.

Xorijlik olimlar moliyaviy nazorat, davlat moliyaviy nazorati va unga aloqador kategoriyalarga o'zlarining ta'riflari va fikrlarini berib o'tishgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tadqiqotlari o'rganilgan olimlarning aksariyati davlat moliyaviy nazoratining funksional yoki tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratgan. Lekin shunday olimlar ham borki ular har ikki yo'nalish bo'yicha xam o'z fikrlarini bayon etishgan. Bundan tashqari 1-jadvalning o'ziga xos xususiyati shundaki olimlarning aksariyati fikrlarida moliyaviy nazoratning funksional jihatlarini ustunlik qiladi. Fikrlarga ko'ra davlat moliyaviy nazorati qonunchilikka rioya qilish va xarajatlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. Bundan tashqari ularning ozchiligi tomonidan davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olishga e'tibor qaratilgan.

Tashkiliy jihatidan esa, bizningcha eng muhim yo'nalish davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy boshqaruvning bir qismi ekanligidir. Bu bir tomondan uning maxsus tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini izohlasa boshqa tomondan moliyaviy boshqaruvning barcha bosqichlarida mavjud bo'lishi lozimligini anglatadi.

Olimlar va tadqiqotchilarning davlat moliyaviy nazoratining asosiy vazifalari bo'yicha fikrlari tahlili

Davlat moliyaviy nazoratining asosiy vazifalari bo'yicha fikrlar	Olimlar va tadqiqotchilar
Funksional jihatdan	
Moliyaviy intizomni ta'minlanishi, qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash, moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash va jazolash	N.Hepworth, N.N. Shestakova, N.Milyakov, A.Zudilin, F.Axmedov, V.I. Samaruxa, I.V. Derevsova, L.N. Ovsyannikov, S.O. Shoxin, B.T.Turabov, N.E.Jiyanova va N.O.Tursunboyeva, M.Sh.Mamatqulov.
Budjet xarajatlarining samaradorligi, natijadorligi va ulardan oqilona foydalanish	R.D. Koning, A.I. Lukashev, L. Doe, S.Pattanayak, S.E. Prokofev, N.Yu.Isakova, Yu.A.Dolgix, A.G.Lachixina, A.Ibragimov, B.T.Turabov, A.Vaxobov, T.Malikov.
Moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish va xavflardan ogohlantirish	N.Milyakov, N.E.Jiyanova, N.O.Tursunboyeva, N.Hepworth, R.D. Koning.
Tashkiliy jihatdan	
Moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi	A.Premchand, N.Hepworth, N.N. Shestakova, A.Ibragimov, B.T.Turabov, A.Vaxobov, T.Malikov, A.Ibragimov, B.Sugirbayev.
Vakolatli maxsus tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat va tekshirish	A.Zudilin, F.Axmedov, N.S.Matveeva, A.Vaxobov, T.Malikov, T.Malikov, Sh.Jalilov.
Tashkiliy jihatdan ichki va tashqiga bo'linishi	R.D. Koning, C.Pretorius, N.Pretorius, M.V.Melnik, A.S. Panteleev, A.L. Zvezdinlar, I.A. Azizova, N.S.Matveeva, L. Doe, S. Pattanayak.

Fikrimizcha, 1-jadvaldan shunday xulosaga kelish mumkinki, olimlar va ilmiy doira vakillarida davlat moliyaviy nazoratiga turli rakursdan turlicha qarashlar mavjud. Lekin eng muhim konsensus shundaki, ularning barchasi davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy boshqaruv va intizomning ajralmas qismi ekanligini inkor etishmaydi. Bizningcha, eng muhim xulosa shu bo'lib, davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazorati konsepsiyasini tadqiq qilganda moliyaviy oqimlarni boshqarishning barcha bosqichlarida moliyaviy nazoratni tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazoratini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini o'rganish jarayonida moliyaviy xavflarni boshqarish tizimining ko'pgina iqtisodiyoti ilg'or mamlakatlar amaliyotiga tatbiq etilganligi guvohi bo'ldik. Mazkur tizimning afzalliklari shundaki moliyaviy xavflarni boshqarish orqali moliyaviy nazoratning proaktiv usuli yo'lga qo'yiladi va bu orqali moliyaviy xato va kamchiliklarning yuzaga kelish ehtimolini oldindan aniqlash asosida ular yuzaga kelishidan oldin choralar ko'rishga imkonini yaratadi.

1-jadval ma'lumotlarida ayrim olimlar tomonidan davlat moliyaviy nazoratining funksional arxitekturasida moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini

olish va xavflardan ogohlantirish mavjudligini ta’kidlab o’tishgan. Shuning uchun ham bizningcha moliyaviy xavflarni boshqarish masalasini davlat moliyaviy nazoratining ajralmas qismi sifatida e’tirof etish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizda moliyaviy xavflarni boshqarish emas ko‘proq aniqlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor moliyaviy xato va kamchiliklar faktlarini aniqlash va bartaraf etish yoki javobgarlik masalalariga qaratiladi. Bunda tashkilotlar moliyaviy faoliyati bilan bog‘liq me’yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilinishini nazorat qilish birinchi o‘rinda turadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda “moliyaviy xavflar” va “moliyaviy huquqbuzarliklar” bir ma’noda qo‘llaniladi. Buning ta’siri sifatida moliyaviy huquqbuzarlik holatlari bir paytda moliyaviy xavflar sifatida qaralishini aytib o‘tish lozim.

Bizningcha, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati faoliyatining tarixini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lishimiz mumkin (1-rasmga qarang).

Birinchi bosqich 1992-2016-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda davlat moliyaviy nazorati tizimi tashkil etilishidan tortib, uning eng katta vakolatlar va majburiyatlarga ega bo‘lgan funktsiya darajasiga ko‘tarilishi yuz berdi.

Xususan, 1992-yilda vazirlik va idoralardagi nazorat taftish tuzilmalarini tugatish orqali Moliya vazirligi tarkibida markazlashgan Nazorat-taftish boshqarmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etildi. Mazkur tuzilma bugungi kunda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi nomi bilan faoliyat olib bormoqda. Bizningcha, O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining tarixi haqida so‘z borganda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tarixini o‘rganish kifoya qiladi.

Ikkinchi bosqich 2017-2023-yillarni qamrab oladi va bu davrda davlat moliyaviy nazorati funksiyasining qisqarishi yoki boshqa tuzilmalarga o‘tkazilishi sababli shtatlar sonining qisqarishi bilan kechdi. Ikkinchi qismdagi asosiy burilish nuqtasi vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlarini tashkil etilishi bilan boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur qismda davlat moliyaviy nazorati tizimida moliyaviy ispeksiya, ichki va tashqi audit funksiyalari bir-biridan ajratildi.



1-rasm. O‘zbekistonda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatining rivojlanish bosqichlari⁸

Uchinchi bosqich bizningcha, 2024-yildan Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining Bosh prokuratura tarkibidagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti huzuriga o‘tkazilishi bilan boshlangan.

⁸ Rasm muallif tomonidan normativ huquqiy hujjatlar asosida tayyorlangan.

Fikrimizcha mazkur o'zgarish davlat moliyaviy nazorati tizimiga funksional ravishda jiddiy ta'sir qildi. Funksional ta'sir shundaki⁶ endilikda moliyaviy inspeksiya funksiyasining siyosati ijro hokimiyati va uning tarkibidagi moliya tuzilmalari tomonidan yuritilishi cheklanadi. Chunki moliyaviy inspeksiya funksiyasi ko'proq huquqiy munosabatlar doirasiga kiritiladi.

Bizningcha, dissertatsiyaning birinchi bobi bo'yicha xulosa sifatida davlat moliyaviy nazoratining ilmiy-nazariy qarashlarida davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy boshqaruvning bir qismi ekanligi e'tirof etilganligini, zamonaviy mexanizmlar qatorida moliyaviy xavflarni boshqarish keltirilganligini hamda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati tizimining rivojlanish bosqichlarida funksiyaning tashkiliy va vazifaviy jihatdan diversifikatsiyasi yuz berayotganligini e'tirof etish lozim.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning xorijiy tajribalari”** deb nomlangan bo'lib, unda moliyaviy nazoratni tashkil etishning xalqaro modellari, davlat moliyaviy nazorati tizimi samaradorligini xalqaro darajada baholash hamda xorijiy mamlakatlarda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish tajribalari bayon etilgan.

Davlat moliyaviy nazorati tizimining xorij tajribalarini o'rganish orqali zamonaviy davlat moliyaviy nazorati tizimi va undagi institutsional hamda funksional rivojlanishni tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi.

Bizningcha davlat moliyaviy nazorati tizimining xalqaro tajribalarini o'rganishda birinchi navbatda umume'tirof etilgan modellar va ularning tavsifiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki mazkur modellarda davlat moliyaviy nazoratining nazariy asoslari xalqaro darajada tahlil qilingan va tahlil natijalariga ko'ra shakllangan fikrlar jamlangan bo'ladi.

Shuningdek, xalqaro tajribada asosiy e'tibor funksional taqsimotga qaratiladi. Aynan funksional taqsimotni amalga oshirish uchun davlat moliyaviy nazorati tizimining asosiy maqsadi, mohiyati va ahamiyatini aniqlab olish lozim bo'ladi.

Xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan davlat organlarida ichki nazoratni yaxshilash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa mazkur masala Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ittifoqqa a'zolikning shartlaridan biri hisoblanadi.

Bu borada R.D. Koning o'zining “Davlat ichki moliyaviy nazorati” asarida shunday deydi: ““davlat ichki moliyaviy nazorati” tushunchasi Yevropa Komissiyasi tomonidan nomzod mamlakatlarning davlat ichki nazorat tizimlarini isloh qilishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan strategiya hisoblanadi. Ushbu yondashuvning muhim ahamiyati shundaki, u Yevropa Ittifoqiga qo'shilish arafasidagi mamlakatlarda mavjud an'anaviy tizimlarga nisbatan ancha yuqori darajadagi xarajatlar nazoratini joriy etish imkonini berdi va “qiymatiga yarasha samara” (value for money) tamoyiliga katta e'tibor qaratdi.⁹” Shuningdek, R.D. Koning fikricha “davlat ichki moliyaviy nazorati” konsepsiyasi uch yirik

⁹ Koning R.D. Public Internal Financial Control. Slovenia 2007. 3-bet.

yo‘nalishdan iborat bo‘ladi. Bu moliyaviy boshqaruv va nazorat, ichki audit va rivojlantirish funksiyalaridir.

Moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimiga xalqaro Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlar qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan “Ichki nazorat – integratsiyalashgan model”¹⁰ asos sifatida olingan. Unda nazarda tutilgan asosiy masala moliyaviy boshqaruvni samarali yo‘lga qo‘yishda ichki nazorat mexanizmlarini sifatli shakllantirishdir.

Bizningcha R.D. Koning tomonidan tadqiq etilgan davlat ichki moliyaviy nazorati tizimi moliyaviy nazoratda katta burilish yasagan va bugungi kundagi zamonaviy davlat moliyaviy nazorati arxitekturasini shakllanishiga tamal toshini qo‘ygan. Chunki, mazkur tadqiqotlarga qadar davlat moliyaviy nazoratida asosiy e‘tibor tashqi nazorat tuzilmalariga qaratilgan.

Shuning uchun ham bizningcha, mamlakatimizda ham davlat moliyaviy nazoratini konseptual rivojlantirishda “davlat ichki moliyaviy nazorati” konsepsiyasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, O‘zbekistonda ham mazkur yangi davlat ichki moliyaviy nazorati tizimini yaratish ishlari boshlangan. Bunda, asosiy e‘tibor yangi davlat ichki moliyaviy nazorati modelini tatbiq etishda moliyaviy inspeksiya funksiyasini saqlab qolgan holda ichki moliyaviy nazorat tizimini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bizningcha, mamlakatimiz davlat organlarida moliyaviy boshqaruv va nazoratni yuqorida aytib o‘tilgan “Ichki nazorat- integratsiyalashgan model” asosida takomillashtirish zaruriyati mavjud. Mazkur model tarkibi 5 ta komponent va 17 ta tamoyillardan iborat bo‘lib, unda ichki nazorat tizimini tashkil etishning konseptual asoslari hamda tarkibi keltirilgan. Mazkur modelda ichki nazorat tizimi nazorat muhiti, xavflarni boshqarish, nazorat tadbirlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring va baholash komponentlaridan iborat.


Fikrimizcha, mazkur komponentlarning ayrim elementlari ko‘pgina davlatlarda, xususan O‘zbekistonda ham mavjud bo‘lsada, uning afzalliklari barcha komponentlar va tamoyillarning bir paytda bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda hamda to‘ldirgan holda bajarilishida ko‘rinadi. Chunki, moliyaviy boshqaruv juda ko‘p moliyaviy va nomoliyaviy jarayonlardan iborat bo‘ladi. Bunda moliyaviy boshqaruv xodimlarni obod-axloq qoidalariga rioya qilishlari kabi nomoliyaviy jihatlariga ham juda bog‘liq bo‘ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ham ichki nazorat xalqaro standartlarini davlat organlari moliyaviy faoliyatiga joriy etish orqali moliyaviy xavflarni kamaytirish, hisobdorlik, mas‘uliyat va javobgarlikni oshirish ta‘minlanadi.

Bizningcha davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazorati konseptual asoslarini takomillashtirishda foydalanilishi lozim bo‘lgan xalqaro model bu Xalqaro ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan “Uch bo‘g‘in” modelidir. Mazkur model orqali davlat organlari va tashkilotlarida vakolatlari va

¹⁰ www.coso.org - Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlar qo‘mitasining rasmiy internet sayti. Internal Control – Integrated Framework. Murojaat qilingan sana: 2025-yil 5-yanvar.

vazifalarini institutsional va funksional taqsimotini manfaatlar muvozanati hamda o‘zaro tiyib turish tamoyillari asosida amalga oshirishda keng foydalanilmoqda.



2-rasm. Uch bo'g'in modeli¹¹

2-rasmda keltirilgan modelda davlat organlari va tashkilotlarining maqsadlariga erishishdagi boshqaruv funksiyalari, moliyaviy nazorat hamda ularga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflardan himoyalashning uch bo'g'inini keltirilgan.

“Uch bo'g'in” modelida tashkilotlarda “himoya tizimlari”ni yo'lga qo'yish keltirilgan bo'lib, har bir tashkilotda uning maqsadlariga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflardan (masalan, moliyaviy xato va kamchiliklar) samarali himoyani tashkil etish jarayoni ko'rsatib berilgan.

Bizningcha, bunday chegaralanish orqali moliyaviy nazorat tizimlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash osonlashadi. Chunki, aniq qoidalar asosida tashkil etilgan tizimlarni o'zaro muvofiqlashtirish va tiyib turishni tashkil etish oson bo'ladi.


Moliyaviy nazoratning dastlabki, joriy va yakuniy turlarini uch bo'g'in modeli orqali tashkil etish, ular o'rtasidagi gorizontal va vertikal o'zaro farqlarni, mas'uliyat va javobgarlik markazlarini belgilash imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida har bir bo'g'inning vazifalarini bir-biridan ajratish asosida bir-birini taqozo etuvchi, to'ldiruvchi va tiyib turuvchi jarayonga keltirish mumkin.

¹¹ www.theiia.org - Xalqaro ichki auditorlar instituti rasmiy sayti. “Applying the Three Lines Model In the Public Sector” 9-bet. Murojaat qilingan sana: 2025-yil 11-fevral

Bizningcha, mazkur “uch bo‘g‘in” modelini mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimiga tatbiq etish orqali mahalliy va respublika darajasidagi moliya-iqtisod, buxgalteriya va boshqa tuzilmalarning javobgarlik markazlarini aniq belgilash mumkin bo‘ladi.

Dissertatsiya ishining “**Davlat moliyaviy nazorati tizimi qamrovi, tashkil etilishi va natijalari tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining o‘zgarishlari tendensiyalari, moliyaviy nazorat organlarining tashkiliy va shtatlar sonidagi o‘zgarishlari, moliyaviy nazorati tizimi faoliyatining natijalari tahlili amalga oshirilgan.

Bizningcha davlat moliyaviy nazoratining qamrovi va uning obyekti sifatida, avvalo davlat budjeti xarajatlarini tahlil qilishimiz lozim. Bu bir tomondan dissertatsiya mavzusida keltirilgan bo‘lsa, boshqa tomondan davlat moliyasini boshqarishda davlat budjeti eng yirik bo‘limdir.




3-rasm. Davlat budjeti xarajatlarining o‘zgarishlari tahlili¹²

3-rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, davlat budjeti xarajatlari miqdor jihatidan o‘rib borish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 2 barobardan ziyodga o‘sgan. Lekin davlat budjeti xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushida 2022-yildan boshlab har yili kamida bir foizga pasayish kuzatilmoqda va 2024-yilda 20 foizni tashkil qilgan. Bundan tashqari tahlilimizni yanada to‘laqonli bo‘lishini ta’minlash maqsadida davlat budjeti xarajatlari miqdorining o‘tgan yilga nisbatan o‘rishining foizi tahlil qilingan (3-rasmda uzoq chiziq shaklida keltirilgan). Unga ko‘ra, davlat budjeti xarajatlari miqdorining o‘tgan yilga nisbatan o‘rishi yillar davomida sekinlashmoqda. Xususan, 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 131,0 foizga o‘rish kuzatilgan bo‘lsa, 2024-yilda 2023-yilga kelib o‘rish 111,0 foizni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

¹² Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Bizninchga, davlat budjeti xarajatlarining YAIMga va o'tgan yillarga nisbatan ulushi pasaygan bo'lsada, uning miqdoridagi barqaror o'sish moliyaviy nazoratini ta'minlashda juda muhim va hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, davlat moliyaviy nazorati qamrovida keyingi eng muhim ko'rsatkich davlat budjeti xarajatlarining tarkibidir. Chunki, bizningcha davlat budjeti xarajatlarining tarkibi moliyalashtirish usullari, sarflanish yo'nalishlari hamda ularni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar nuqtayi nazaridan turlicha bo'ladi. Bu esa o'z navbatida davlat moliyaviy nazoratni mazkur yo'nalishlarga ixtisoslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.



4-rasm. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi tahlili¹³

4-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, davlat budjeti xarajatlarining tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari qariyb 50,0 foizni tashkil qilmoqda. Ijtimoiy soha xarajatlari ulushining yuqoriligi davlat moliyaviy nazoratida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Buning ahamiyati shundaki, ijtimoiy soha xarajatlarining aksariyat qismi oylik maoshidan iborat bo'ladi va uning nazorati ko'p vaqt hamda resurs talab qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy sohalarni moliyaviy nazoratida juda ko'plab normativ-hujjatlarning tatbiq etilishi hisobiga nazorat tadbirining sifatiga salbiy ta'sir etuvchi holatlar xavflari ko'p uchraydi.

4-rasmda davlat budjeti xarajatlarining yirik guruhi iqtisodiyot xarajatlaridir. Uning ulushi jamiga nisbatan o'rtacha 11-15 foizni tashkil qilmoqda. Iqtisodiyot xarajatlarining moliyaviy nazorati murakkabligi odatda qo'shimcha malaka yoki mutaxassis yollashni talab qilishi bilan izohlanadi.

¹³ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Markazlashgan investitsiya xarajatlarining ulushi 9-15 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, uning o'sib borishi albatta qurilish ishlarining borishiga bog'liq bo'ladi. Davlat moliyaviy nazoratida qurilish sohasi alohida o'rin tutadi va doimo mutaxassis yollashni talab qiladi. Shuning uchun ham markazlashgan investitsiya xarajatlarining davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishda institutsional yechimlar ham kerak bo'ladi.

Umuman olganda davlat budjeti xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlarning sezilarli emasligi davlat moliyaviy nazoratida qamrov bilan bog'langan keskin o'zgarishlar qilish zaruriyatini tug'dirmaydi.

Bizningcha, davlat moliyaviy nazorati tizimida asosiy e'tibor tashqi moliyaviy nazoratchilarga qaratilib, ichki va nisbatan katta inson resurslariga ega bo'lgan va moliyaviy xato va kamchiliklarga maksimal yaqin bo'lgan tuzilmalar orqali davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishga yetarli e'tibor qaratilmayapti.

O'z navbatida mamlakatimizda davlat moliyaviy nazoratining konseptual asoslarida tashqi va tanlanma tartibda nazorat olib boruvchi moliyaviy inspeksiya, ichki va tashqi audit funksiyalari va uni amalga oshiruvchi tuzilmalarga ustuvorlik va e'tibor qaratilganligi, aksincha resurs bazasi va moliyaviy oqimlarga yaqinligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan moliya-buxgalteriya, moliya-iqtisod va g'aznachilik tuzilmalari faoliyati doirasi hamda resurslari qisqarib borayotganligi bizningcha bugungi kundagi asosiy konseptual muammo hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyati natijalaridan moliyaviy xato va kamchiliklar yuzaga kelishi sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishda foydalanish mumkin bo'ladi.

Bizningcha, mamlakatimiz davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyati natijalarini tahlil qilishda Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyati ma'lumotlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Buning sababi sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

1. Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi sof moliyaviy nazorat yuklatilgan yagona davlat organi hisoblanadi. Qolgan tuzilmalar tomonidan moliyaviy nazorat o'z faoliyati jarayoni ular bajaradigan vazifalar doirasida amalga oshiriladi;

2. Faqat yakuniy davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi yagona muassasa hisoblanadi;

3. Barcha boshqa tuzilmalari tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy nazorat tadbirlari natijalari oxir-oqibat baribir mazkur inspeksiya tomonidan yakuniga yetkaziladi;

4. Davlat moliyaviy nazorati organi sifatida yetarli maqom va huquqlarga ega hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining asosiy faoliyati moliyaviy xato va kamchiliklarni, kamomad, o'zlashtirish va talon-taroj qilish kabi holatlarni aniqlash va rasmiylashtirish orqali ularni tiklanishi va yoki aybdorlarni jazolash bo'yicha ishlarda ishtirok etishga qaratilganligi sababli, ularning natijalari sifatilda ham aynan shu ma'lumotlarni tahlil qilish lozim.

Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi tomonidan aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi tahlili, foizda ¹⁴

Mablag' manbalari	2020-yil		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Obyekt soni	summasi	Obyekt soni	summasi	Obyekt soni	summasi	Obyekt soni	summasi	Obyekt soni	summasi
Budjet mablag'lari	58,4	72,6	139,3	435,9	89,8	90,9	85,9	95,8	142,7	434,0
Davlat maqsadli va boshqa jamg'armalar mablag'lari	114,7	323,4	39,0	43,9	126,1	347,3	40,2	49,0	279,3	987,3

2-jadval ma'lumotlaridan aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning o'tgan yilga nisbatan ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-2024-yillar oralig'ida nobarqaror o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Jumladan, budjet mablag'lari bo'yicha 2021-yilda o'tkazilgan nazorat tadbirlari soni 2020-yilga nisbatan 139,5 foizga, aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar miqdori qariyb 435,9 foizga ortgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 2023-yilga nisbatan nazorat obyektlari soni 142,7 foiz, aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar miqdori 434,0 foizga ortgan.

Bizningcha, davlat budjeti mablag'lari bo'yicha 2022-yilda aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning 2021-yilga nisbatan hamda 2023-yilda aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning 2022-yilga nisbatan pasayishining asosiy sababi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatida yuz bergan tashkiliy va funksional o'zgarishlarni keltirishimiz mumkin.

Umuman olganda, uchinchi bobda amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki davlat budjeti xarajatlarining o'sib borishi bilan, uning moliyaviy nazoratida aniqlangan moliyaviy xato hamda kamchiliklar ham nobarqaror bo'lsada, o'sib borish tendensiyasiga ega. Bundan asosiy e'tiborni moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash va minimallashtirish, xalqaro modellarni qo'llagan holda ichki moliyaviy nazoratni standartlashtirish hamda mamlakatimizda davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy nazoratini konseptual takomillashtirishga qaratish lozimligi kelib chiqadi nazarimizda.

Dissertatsiyaning **“Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida davlat budjeti xarajatlarining moliyaviy qoidabuzarliklar o'zgarishi tendensiyalariga ta'sir etishi baholangan, moliyaviy nazorati tizimini funksional hamda tashkiliy takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar bayon etilgan.

Bizningcha, budjet xarajatlarining oshib borishi bilan unga nisbatan moliyaviy xato va kamchiliklar (masalan, kamomad, o'zlashtirish va noqonuniy xarajat kabi)

¹⁴ Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

ulushining oshib borish ehtimolligi vujudga keladi. Boshqacha aytganda, birorta jarayonning shakllanishida uning tarkibidagi buzilish ehtimolligining saqlanib qolishini e'tiborga olish lozim. Mazkur tendensiyaning maksimal darajada kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT, OECD) tadqiqotlarida quyidagi ikki jihat qayd etib o'tiladi: birinchidan, budget xarajatlari tarkibida va amalga oshirilishida shaffoflik kamayishi bilan kamomadlar va ortiqcha xarajatlar ko'payishi kuzatiladi. Ikkinchidan, moliyaviy nazoratning kuchli bo'lishi bilan budgetga qaytariladigan mablag'lar hajmi ham ortib borishi ta'kidlab o'tilgan.

Biz tadqiqotlarimiz davomida mamlakatizda budget xarajatlarning umumiy barcha yo'nalishlarining moliyaviy qoidabuzarliklarga bo'lgan ta'sirini regression modellar asosida aniqlash va baholashga harakat qildik. Bunda O'zbekistonning 14 ta ma'muriy-hududiy mintaqalari bo'yicha 2017-2024-yillarda budget xarajatlarning o'zgarish tendensiyalarining budget xarajalarining noto'g'ri yo'naltirishga bo'lgan ta'sirini baholashga e'tibor beramiz.

3-jadval

Budget xarajatlarning pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi va o'zlashtirishlar hajmiga ta'siri tahlili Random-effects modeli

Fixed-effects (within) regression	Number of obs	112	Number of groups	14
R-squared:	Obs per group:		Group variable:	hudud
Within = 0.4343	min	8	Wald chi2(4)	72.54
Between = 0.0873	avg	8.0	Prob > chi2	0.0000
Overall = 0.3585	max	8	corr(u_i, Xb)	0 (assumed)

Kamomad summasi	Coefficient	Std. err.	t	P>t	[95% conf. interval]
Ijtimoiy xarajatlar	180.5012	121.7207	1.48	0.138	-58.06698 419.0694
Iqtisodiyot xarajatlari	-.1449156	1.412774	-0.10	0.918	-2.913901 2.62407
Markazlashgan investisiya	-.9912337	2.097149	-0.47	0.636	-5.10157 3.119103
Davlat organlarini saqlash xaraj	15.95671	4.57412	3.49	0.000	6.991595 24.92182
NNT xarajatlari	-34.8578	21.22366	-1.64	0.101	-76.4554 6.739795
Boshqa xarajatlar	6.106198	6.243611	0.98	0.328	-6.131055 18.34345
_cons	1238.572	2292.482	0.54	0.589	-3254.61 5731.753
sigma_u	3394.8379				
sigma_e	5677.0162				
rho	.26340615				(fraction of variance due to u_i)

3-jadvalda Random-effects model ma'lumotlari keltirilgan. Ushbu model tanlangan ko'rsatkichlar ehtimoliy ta'sirini inobatga olishga imkon beradi. Bunda kuzatiladigan har bir ko'rsatkichning alohida ta'sirini aniqlash va baholash mumkin.

Mazkur modelni tanlashdan oldin Xausman testi orqali tekshirib ko‘rdik. Natijada unda keltirilgan $p = 0.6798 > 0.05$ ko‘rsatkichi hududlar o‘rtasidagi farqlarni yaxshi tahlil qilinayotganligini ko‘rsatdi va bu Random-effects modelini tanlashga bo‘lgan zaruratni o‘zida ifodalab beradi.

4-jadvalda biz pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning kamomadi va o‘zlashtirib olishga nisbatan tendensiyalarning hududlar va budget xarajatlari yo‘nalishlari kesishmasida Random-effects GLS regression marginal tahlili jamlanma natijalarini ko‘rish mumkin. Mazkur jadval ma‘lumotlari har bir xarajat yo‘nalishining hududlar kesimidagi tahlili natijasida shakllantirilgan bo‘lib, umumiy xulosani shakllantirishga xizmat qiladi.

4-jadval

Pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning kamomadi va o‘zlashtirishlar hajmiga hududlar va xarajatlar yo‘nalishi bo‘yicha ta’siri Random-effects GLS regression marginal tahlili jamlanma natijasi

Hududlar	Ijtimoxarajat	Iqtisxarajat	Markninves	Davlatorgan	NNTxaraj	Boshqaxar
Andijon	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Teskari	Ah-siz
Buxoro	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	Ah-siz
Farg‘ona	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	Teskari	Ah-siz
Jizzax	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	Teskari	Teskari
Namangan	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	Teskari	Ah-siz
Navoiy	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz
Qashqadaryo	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Teskari	Teskari	Ah-siz
QoraqRes.	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	Ah-siz
Samarqand	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz
Sirdaryo	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri
Surxondaryo	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Teskari	Ah-siz
Toshkent sh	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz
Toshkent v.	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	Teskari	Ah-siz
Xorazm	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz

*Izoh 1: Ah-siz qisqartmasi “Ahamiyatsiz” degan mazmuni anglatadi

4-jadvalda “ahamiyatsiz” deb ko‘rsatilgan kesishma statistik tahlilimizning p-value qiymati ahamiyatli emasligidan kelib chiqib yozilgan. Biroq, ushbu “ahamiyatsiz” natijada model koeffitsiyentlari ko‘plab holatlarda musbat ekanligini inobatga olsak, mazkur budget xarajatlari ham kamomad summasini oshirishga moyillikni keltirib chiqarayotganligini o‘zida ifodalab beradi. Mazkur jadvaldan kelib chiqib, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

Birinchidan, eng ijobiy (to‘g‘ri proporsional) ta’sir etayotgan budget xarajatlari sifatida iqtisodiyot xarajatlari, markazlashgan investisiyalar va davlat organlarini saqlash xarajatlari kabi yo‘nalishlarda mablag‘larning oshirilishi kamomad summasini ham oshirishga olib kelayotganligini qayd etish lozim. Demak, ushbu yo‘nalishda budget xarajatlarini sarflanishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini qat’iy pozitsiyada olib borilishini o‘zida aks ettirib beradi. Ayniqsa, Andijon va Sirdaryo

viloyatlarida ushbu tendensiyalarning moyilligi yuqori ekanligini inobatga olish zarur.

Ikkinchidan, nodavlat-notijorat tashkilotlari uchun yo‘naltirilayotgan budget xarajatlari oshib borsada, moliyaviy kamomadning kamayish tendensiyasiga ega bo‘layotganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Navoiy, Namangan va Buxoro kabi viloyatlarda iqtisodiyot xarajatlari maqsadli foydalanilishi ijobiy tendensiyalarni aks ettirayotganligini kuzatamiz. Xulosa qilib aytganda, budgetning nodavlat tashkilotlari loyihalari uchun ajrayotgan mablag‘lari va ayrim viloyatlarning tajribalarini ommalashtirish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatning natijalari sifatida noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlar ham e‘tirof etiladi. Bunda noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlarning pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning kamomadi hamda o‘zlashtirishlardan farqi yo‘l qo‘yilgan noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlar jinoyat alomatlari mavjud bo‘lmagan hamda moliyaviy mablag‘larni qasddan o‘zlashtirish madsadida amalga oshirilmagan qismi kiritiladi. Ya‘ni, noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlar ko‘proq e‘tiborsizlik va yetarli kompetensiyalarga ega bo‘lmashlikdan kelib chiqadi.

5-jadvalda budget xarajatlarining noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlarga ta‘sirini baholashda foydalanilgan Random-effects modeli ma‘lumotlari keltirilgan.

5-jadval

Budget xarajatlarining noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlarga hajmiga ta‘sirini tahlili Random-effects modeli

Fixed-effects (within) regression	Number of obs	112	Number of groups	14
R-squared:	Obs per group:		Group variable:	hudud
Within = 0.6698	min	8	Wald chi2(7)	153.30
Between = 0.1728	avg	8.0	Prob > chi2	0.0000
Overall = 0.5958	max	8	corr(u_i, Xb)	0 (assumed)

Ortiqcha xarajat summasi	Coefficient	Std. err.	t	P>t	[95% conf. interval]
Ijtimoiy xarajatlar	479.5239	365.8419	1.31	0.190	-237.513 1196.561
Iqtisodiyot xarajatlari	-4.664448	3.797334	-1.23	0.219	-12.10709 2.778189
Markazlashgan investisiya	8.315376	6.290144	1.32	0.186	-4.01308 20.64383
Davlat organlarini saqlash xaraj...	77.13766	13.44637	5.74	0.000	50.78326 103.4921
NNT xarajatlari	5.691992	58.48358	0.10	0.922	-108.9337 120.3177
Boshqa xarajatlar	-2.142307	18.40773	-0.12	0.907	-38.22079 33.93618
_cons	-1219.18	4776.091	-0.26	0.799	-10580.15 8141.787

5-jadvaldagi mazkur modelni tanlashdan oldin Xausman testi orqali tekshirib ko‘ramiz. Hausman testida $p\text{-value} = 0.0007 < 0.05$ ekanligidan Fixed Effects (FE) modeli tanlash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rish mumkin.

6-jadval

Budjet xarajatlarning noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlarga hajmiga ta’siri Fixed effects GLS regression marginal tahlili jamlanma natijasi

Hududlar	Ijtimoxarajat	Iqtisxarajat	Markninves	Davlatorgan	NNTxaraj	Boshqaxar
Andijon	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz	Ah-siz
Buxoro	Ah-siz	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	Ah-siz	Ah-siz
Farg‘ona	Ah-siz	Teskari	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz
Jizzax	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz
Namangan	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Teskari	Ah-siz
Navoiy	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Teskari
Qashqadaryo	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz	To‘g‘ri
QoraqRes.	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri	To‘g‘ri
Samarqand	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz
Sirdaryo	Ah-siz	To‘g‘ri	Teskari	To‘g‘ri	Ah-siz	To‘g‘ri
Surxondaryo	Ah-siz	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz	Ah-siz
Toshkent sh	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	Ah-siz	Ah-siz
Toshkent v.	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Teskari
Xorazm	Ah-siz	Teskari	Ah-siz	To‘g‘ri	To‘g‘ri	Ah-siz

*Izoh: Ah-siz qisqartmasi Ahamiyatsiz degan mazmunni anglatadi

6-jadvalda budjet xarajatlarning noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlarga hajmiga ta’siri keltirilgan bo‘lib, uning natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik.

Birinchidan, ijtimoiy soha va aholini qo‘llab-quvvatlash uchun xarajatlar barcha hududlarda statistik ahamiyatli ta’sirga ega emasligini ko‘rish mumkin. Demak, ijtimoiy xususiyatdagi xarajatlarda noqonuniy yoki ortiqcha to‘lovlar amalga oshirilishi ma’lum bir tendensiyaga ega emas ekan.

Ikkinchidan, davlat organlarini saqlash xarajatlarning ortishi noqonuniy va ortiqcha to‘lovlar hajmini oshishiga olib kelmoqda. Bu esa, aynan ushbu sohada moliyaviy nazoratning profilaktikaga qaratilgan xususiyatini rivojlantirishni talab etadi.

Uchinchidan, iqtisodiyot, markazlashgan investisiyalar va NNT xarajatlari ayrim hududlarda moliyaviy qoidabuzarlikni oshishiga olib kelmayotgan bo‘lsada, boshqa hududlarda moliyaviy riskning mavjudligini o‘zida ifodalab bermoqda. Jumladan, Farg‘ona, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyati kabi hududlarda xarajatlarni amalga oshirishda moliyaviy qoidabuzarlik riskining yuqoriligi bilan ajralib turganligini ko‘rish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, budjet xarajatlarni moliyalashtirishda qoidabuzarlik holatlariga moyillik yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar va hududlarni ajratib olish va

moliyaviy profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Shuningdek, ayrim budjet xarajatlari yo‘nalishida tizimli qoidabuzarliklar mavjudligini qayd etish lozim. Bunda ham moliyaviy nazoratning targetlash amaliyotini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi, deb o‘ylaymiz.

Shuningdek, noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lov shaklidagi budjet mablag‘larining tiklanishi yuqori tezlikka ega bo‘lmoqda. Bu esa, boshqa turdagi moliyaviy qoidabuzarliklarning ta‘siri mavjud emasligi va ularning qayta tiklanishi ehtimolligi juda kichikligini o‘zida ifodalab bermoqda. Mazkur ilmiy xulosamizni yanada kengroq asoslash maqsadida hududiy tendensiyalarni ham tahlil qilamiz. Ushbu tadqiqotimizni 7-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar bilan izohlash mumkin.

7-jadvaldagi ma‘lumotlarida marjinal ta‘sirni aniqlash va uni baholashga qaratilgan tadqiqotimizni ko‘rish mumkin.

7-jadval

Noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovlarning tiklangan mablag‘larga ta‘siri Random-effects GLS regression modeli marginal ta‘siri tahlili

ortiqchaxarajatsummasi	Delta-method					
hududlar	dy/dx	std. err.	z	P>z	[95% conf.	interval]
Andijon	.8219631	.0851221	9.66	0.000	.655127	.9887993
Buxoro	.7519818	.0096566	77.87	0.000	.7330553	.7709084
Farg‘ona	.3087062	.032091	9.62	0.000	.245809	.3716034
Jizzax	.8208555	.0444011	18.49	0.000	.7338309	.9078801
Namangan	.4656425	.033512	13.89	0.000	.3999603	.5313247
Navoiy	.389653	.0427283	9.12	0.000	.305907	.473399
Qashqadaryo	.4853257	.0281991	17.21	0.000	.4300565	.540595
Qoraqalpog‘iston	.6938927	.0207485	33.44	0.000	.6532263	.7345591
Samarqand	.5483249	.0672027	8.16	0.000	.41661	.6800398
Sirdaryo	.5907455	.0253368	23.32	0.000	.5410863	.6404046
Surxondaryo	.8294872	.0334341	24.81	0.000	.7639575	.8950169
Toshkent shahri	.366812	.0458663	8.00	0.000	.2769158	.4567082
Toshkent viloyati	.7800654	.0199296	39.14	0.000	.7410042	.8191267
Xorazm	.8663443	.0169152	51.22	0.000	.833191	.8994975

7-jadval ma‘lumotlaridan foydalanib quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

Birinchidan, barcha hududlarda mazkur noqonuniy xarajat va ortiqcha to‘lovning shakllanishi ularni qaytib tiklanishiga bo‘lgan moyillikni vujudga keltirishi mumkin ekan.

Ikkinchidan, eng yuqori ta‘sirga ega bo‘lgan hududlar sifatida Xorazm, Surxondaryo, Andijon, Jizzax va Toshkent viloyati kabilarni keltirish mumkin. Ularda mablag‘larning tiklanish tezligi yuqori ekanligini qayd etish lozim.

Uchinchidan, o'rtachadan yuqori bo'lgan hududlar sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, samarqand, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarini keltirish mumkin.

To'rtinchidan, o'rtacha tiklanish darajasiga ega bo'lgan hududlar deb Navoiy va Toshkent shahrini qayd etish lozim bo'ladi.

Beshinchidan, Farg'ona viloyati tiklangan mablag'larga bo'lgan ta'sirning juda kichikligi mavjud bo'lgan hudud sifatida qayd etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliyaviy nazoratida ayrim budjet xarajatlari moliyaviy yukni oshirsa, ayrimlari ta'sir etmayotganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, budjetga qayta tiklanayotgan mablag'larning shakllanishida noqonuniy xarajatlar va ortiqcha to'lovlar bilan hamohangligini ta'kidlash lozim. Bu esa, bizningcha, davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy xavflarni boshqarish va ichki moliyaviy nazoratga ixtisoslashgan proaktiv konsepsiyasini joriy etish asosida moliyaviy xato va kamchiliklarni kamaytirish orqali yakuniy moliyaviy nazoratda asosiy e'tiborni katta miqdordagi o'g'irlik, kamomad va o'zlashtirishlarga qaratib, nazorat tadbirlari resurs ta'minoti va sifatini yaxshilashga erishish mumkinligini ifodalaydi.

Davlat moliyaviy nazorati tizimini funksional rivojlantirish, uning funksional taqsimotiga bog'liq bo'ladi va bunda asosiy e'tiborni funksiyalarni tashkil etishda moliyaviy boshqaruv va ularning oqimlari harakatiga bog'langan, maksimal yaqinlashtirilgan hamda oldini olishga qaratilgan mexanizmlariga qaratish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi boblarda amalga oshirgan tadqiqotlarimizdan shuni ko'rdikki, davlat moliyaviy nazoratining asosiy maqsadlari juda keng bo'lib, ular ichiga moliyaviy xavflardan ogohlantirish va oldini olish ham kiritilgan. Shuningdek bugungi kunda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazorati arxitekturasida moliyaviy xavflarni aniqlash mavjud bo'lsada, uni boshqarishning yaxlit tizimi yaratilmagan. Shuning uchun ham, bizningcha, davlat moliyaviy nazoratini funksional rivojlantirishda avvalo moliyaviy xavflarni boshqarish tizimini kiritish lozim bo'ladi. Fikrimizcha u quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Moliyaviy xavflarni aniqlash bosqichi. Mazkur bosqichda avval yuzaga kelgan moliyaviy xavflarni masalan, noqonuniy xarajat, ortiqcha to'lovlar, o'zlashtirish va kamomadlarni statistik ma'lumotlar va normativ hujjatlar, so'rovlar asosida tizimlashtiriladi, tasniflanadi va ro'yxati tuziladi;

2. Moliyaviy xavflarni baholash bosqichi. Mazkur bosqich juda muhim bo'lib, unda ro'yxatga kiritilgan moliyaviy xavflar darajasi past, o'rta yoki yuqori turlarga ajratiladi. Bunda xavf ta'siri va uning yuzaga kelish ehtimolini alohidalash orqali tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim. Chunki, ayrim moliyaviy xavflarning yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lsada, ularning salbiy ta'sirlari pastroq bo'lishi mumkin. Ba'zi moliyaviy xavflarda esa, aksincha yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lmasada, ularning zarari yoki salbiy ta'siri katta bo'lishi mumkin. Bunda moliyaviy xavflar darajasini xavflar yuzaga keltiradigan salbiy ta'sirini hamda uning vaqt bo'yicha yuzaga kelish ehtimolini o'zaro ko'paytirish orqali belgilash lozim deb hisoblaymiz. Uni amaliyotga joriy etilishi moliyaviy nazoratda asosiy e'tiborni

bir paytda salbiy ta'siri va yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan moliyaviy xavflarga qaratish imkonini yaratadi.

3. Moliyaviy xavflarni kamaytirish bosqichi. Mazkur bosqichda aniqlangan va baholangan moliyaviy xavflarni kamaytirish va bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi hamda ijro etiladi;

4. Moliyaviy xavflarni boshqarishni monitoring qilish bosqichi. Mazkur bosqichda moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish bosqichlarida amalga oshirilgan ishlar hamda ularning moliyaviy xavflar tarkibi va darajasiga ta'siri doimiy tahlil qilib boriladi;

5. Moliyaviy xavflarni jamoatchilikka ochiqlash bosqichi ham mavjud bo'lib unda moliyaviy xavflar ro'yxati va ularni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar keng jamoatchilikka ochiq qilinadi. Bu orqali tashkilotning moliyaviy boshqaruviga jamoatchilikning ishonchini oshirish hamda ayrim xavflardan ogohlantirish imkoni yaratiladi.

Moliyaviy xavflarni boshqarish orqali moliyaviy nazoratni ta'minlash quyidagi afzalliklarga ega:

birinchidan, moliyaviy xavflarni aniqlash orqali eng salbiy ta'sirga ega va yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lgan xavflarni saralab olish imkoni yaratiladi;

ikkinchidan, xavflar bilan kurashish orqali moliyaviy xato va kamchiliklarning oqibatlari bilan emas sabablari bilan ishlash tizimi yuzaga keladi;

uchinchidan, moliyaviy xavflarni boshqarish doimo moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash hamda jazolashdan ko'ra "arzonroqqa" tushadi. Ya'ni, moliyaviy nazorat tadbirlariga nisbatan kamroq moliyaviy, inson va vaqt resurslarini talab qiladi;

to'rtinchidan, moliyaviy xavflarni, ularning egalariga biriktirish orqali xodimlar mas'uliyati va javobgarligi oshirilishiga erishiladi.

Bundan tashqari, amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim turdagi budjet xarajatlarining pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi va o'zlashtirishlar hajmiga ta'siri to'g'ri proporsionaldir. Bu o'z o'rnida davlat budjeti xarajatlarining davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishda cheklangan inson va vaqt resurslari sharoitida moliyaviy xavflarni o'rganishni muhimligidan kelib chiqib tabaqalashtirishni taqozo qiladi. Bunda, ayrim moliyaviy intizom buzilishi bo'yicha aniqlangan xavflar boshqalariga nisbatan haqiqatga yaqin bo'lishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Masalan, 4-jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda aytadigan bo'lsak, davlat organlariga budjet xarajatlarida moliyaviy xavflarni tasdig'ini topish ko'rsatkichi nodavlat-notijorat tashkilotlariga ajratilgan budjet mablag'laridagi aniqlangan moliyaviy xavflarga nisbatan ehtimoli yuqori bo'ladi. Buni 4-jadval ma'lumotlari asosida hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, masalan Andijon viloyatida markazlashgan investitsiya xarajatlarida pul mablag'lari va moddiy boyliklarning kamomadi va o'zlashtirishlarning yuz berishi ehtimoli, Farg'ona viloyatiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Shuning uchun ham bizningcha, moliyaviy xavflarni, ular orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlar (o'g'irlik, kamomad va o'zlashtirish kabi) miqdori orqali saralash va eng katta zararga olib keluvchi xavflarni xarajat guruhlar va hududlar yoki tashkilotlar

bo'yicha ajratib olish lozim. Bunda moliyaviy xavflarni tahlil qilish va baholashda muhimlik vazni ko'rsatkichini kiritish maqsadga muvofiq. Mazkur ko'rsatkich baholangan moliyaviy xavflarga qo'shimcha sifatida koeffitsiyent shaklida ko'paytiriladi va umumiy qiymati 1 (yoki 100 foiz)ga teng bo'ladi.

Bizningcha, davlat moliyaviy nazoratini tashkiliy (institutsional) rivojlantirishda yuqoridagi boblarda tahlil qilingan xalqaro modellardan foydalanish muhim hisoblanadi.

8-jadval

O'zbekistonda "Ichki nazorat – integratsiyalashgan modeli"ning davlat moliyaviy nazoratiga tatbiqi¹⁵

Ichki nazorat komponentlari	Ichki nazorat tamoyillari	Moliyaviy nazorat turlari
Moliyaviy nazorat muhiti	1. Odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi lozim; 2. Ichki moliyaviy nazorat tizimi boshqarishi lozim; 3. Moliyaviy mablag'lar doirasida tashkiliy tuzilma, javobgarlik va vazifalar belgilanishi kerak; 4. Moliyaviy boshqaruvga kompetent shaxslar ishga yollanishi, rivojlantirilishi va saqlab qolinishi kerak; 5. Moliyalashtirish xodimlari ish faoliyati samaradorligi baholanishi va javobgarligini anglatishi kerak.	Dastlabki
Moliyaviy xavflarni boshqarish	1. Moliyaviy xavflarni boshqarish bo'yicha maqsadlar belgilanishi kerak; 2. Moliyaviy xavflar aniqlanishi, baholanishi, tasniflanishi va minimallashtirish bo'yicha choralar ko'rilishi kerak; 3. Moliyaviy xavflarni boshqarishda korrupsiya ehtimoli hisobga olinishi shart; 4. Aniqlangan moliyaviy xavflar bo'yicha tezkor va aniq choralar ko'rilishi kerak.	Dastlabki va joriy
Moliyaviy nazorat tadbirlari	1. Moliyaviy nazorat tadbirlari rejasi ishlab chiqilishi kerak; 2. Axborot tizimi bilan bog'liq moliyaviy nazorat tadbirlari yo'lga qo'yilishi lozim; 3. Moliyaviy nazorat tadbirlari asosiy faoliyati bilan bir xil darajada amalga oshirishi kerak.	Dastlabki, joriy va yakuniy
Moliyaviy nazoratga axborot texnologiyalarini tatbiq etish	1. Moliyaviy boshqaruvda sifatli ma'lumotlardan foydalanish kerak; 2. Zarur sifatli moliyaviy ma'lumotlarni ichki yetkazish va qabul qilish tizimini tashkil etilishi kerak; 3. Zarur sifatli moliyaviy ma'lumotlarni tashqi yetkazish va qabul qilishni tashkil etilishi kerak.	Dastlabki, joriy va yakuniy
Moliyaviy monitoring va baholash	1. Moliyaviy boshqaruv tizimini monitoring qilinishi va baholanishi lozim; 2. Moliyaviy nazoratda aniqlangan kamchiliklarini o'z vaqtida bartaraf etish lozim.	Dastlabki, joriy va yakuniy

8-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, "Ichki nazorat – integratsiyalashgan modeli"ni davlat moliyaviy nazorati tizimiga tatbiq etish orqali birinchi navbatda dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni kuchaytirishi imkoni yaratiladi. Chunki, mazkur komponentlarni bir paytda sifatli ijro etilishi orqali

¹⁵ Jadval "Ichki nazorat – integratsiyalashgan modeli" asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

moliyaviy oqimlarning barcha tomondan nazorati ta'minlanadi va uni baholash imkoni yaratiladi.

Fikrimizcha, davlat organlari va tashkilotlarida “Uch bo‘g‘in” modelidan foydalanish tashkiliy va funksional taqsimotni oqilona amalga oshirish asosida maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishishda operatsion faoliyat, hisobdorlik va muvofiqlikni ta'minlashga yordam beradi.

9-jadval

Davlat organlari va tashkilotlarini moliyalashtirish jarayoniga “Uch bo‘g‘in” modelini tatbiq etilishi¹⁶

Himoya bo‘g‘inlari	Amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat vazifalari
Institutsional jihatdan	
Birinchi bo‘g‘in	Budjet tashkilotlari va ularning tuman (shahar), viloyat darajasidagi boshqarmalarining moliya va buxgalteriya tuzilmalari.
Ikkinchi bo‘g‘in	Vazirlik va idoralarning markaziy apparati moliya va buxgalteriya tuzilmalari (ichki auditdan tashqari) va kollegial organlar (masalan xavflarni boshqarish qo‘mitalari).
Uchinchi bo‘g‘in	Vazirlik va idoralarning ichki audit tuzilmalari.
Funksional jihatdan	
Birinchi bo‘g‘in: vazifa va funksiyalarni bajarishda xavfni boshqarish	Moliya va buxgalteriya bo‘linmalari tomonidan xarajatlar smetasini rejalashtirish, tasdiqlash, ijro etish, shartnomalar tuzish va to‘lovlarni amalga oshirish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va topshirish, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishda moliyaviy nazoratni taminlash.
Ikkinchi bo‘g‘in: xavflar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha ekspertiza, komplaens, moliyaviy nazorat va monitoring	Birinchi bo‘g‘inda nazarda tutilgan moliya va buxgalteriya tuzilmalari vazifalarini to‘laqonli va sifatli ijro etish maqsadida moliyaviy siyosatni belgilash, ichli moliyaviy nazorat tizimini ishlab chiqish va markazlashgan yoki nomarkazlashgan shaklda tatbiq etish ishlarini muvofiqlashtirish.
Uchinchi bo‘g‘in: maqsadlarga erishish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mustaqil va obyektiv kafolat hamda maslahat berish	Birinchi va ikkinchi bo‘g‘indagi vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ya‘ni moliyaviy intizomni ta‘minlanishini mustaqil va xolis baholash hamda uni yaxshilash bo‘yicha taklif berish.

9-jadval ma’lumotlarida davlat moliyaviy nazoratining asosiy organlari bo‘lgan Hisob palatasi, Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, Moliya-iqtisod organlari va G‘aznachilik kiritilmagan bo‘lib, ular “uch bo‘g‘in” modelida tashqi baholovchilar sifatida e’tirof etiladi.

O‘z navbatida, “Uch bo‘g‘in” modelida keltirilgan birinchi va ikkinchi bo‘g‘in faoliyatini samarali tashkil etish va standartlashtirish moliyaviy nazoratni xususan uning

¹⁶ Jadval “Uch bo‘g‘in” modeli asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

dastlabki va joriy turlarini yanada kuchaytirish orqali moliyaviy xato va kamchiliklarni bartaraf etishiga xizmat qiladi. Shuningdek mazkur modelni tatbiq etish murakkab jarayon bo‘lib, unda asosiy muammo vazifalar va javobgarlikni to‘g‘ri belgilay olishdir. Bunda ayniqsa ikkinchi bo‘g‘inning javobgarligini belgilash murakkab hisoblanadi.

Shu bilan birga “uch bo‘g‘in” modeli asosida moliyaviy intizomning barcha bo‘g‘inlarini bir-biridan alohida lekin bir maqsadga yo‘naltirgan holda uyg‘un shaklda tashkil qilish imkoni mavjud.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjeti xarajatlarining davlat moliyaviy nazoratini konseptual takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilgan mazkur tadqiqot doirasida quyidagi xulosalar olindi:

1. O‘zbekistonda davlat budjeti xarajatlarining miqdor va sifat jihatidan ortib borayotganligi, uning tarkibida davlat qarziga xizmat ko‘rsatish ulushning ko‘tarilib borayotganligi bilan bir qatorda aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklarning ham ortib borayotganligi mamlakatimizda davlat moliyaviy nazoratini ta‘minlashda kechiktirib bo‘lmaydigan choralarni ko‘rish lozimligini ko‘rsatmoqda. Bizningcha, bunda asosiy e‘tiborni proaktiv tizimlar va funksiyalarga qaratish orqali moliyaviy xato va kamchiliklarni oldindan aniqlash hamda oldini olishga qaratish muhimdir.

2. Bizningcha, davlat moliyaviy nazorati tizimining konsepsiyasiga “Ichki nazorat – integratsiyalashgan modeli” hamda “Uch bo‘g‘in” modeli asosida moliyaviy nazorat tarkibiga ichki moliyaviy nazorat, ichki nazorat kabi tizimlar kiritilishi kerak. Bunda davlat budjetining xarajatlar qismi davlat moliyaviy nazoratini maksimal darajada moliyaviy operatsiyalarga yaqinlashtirish lozim.

3. Bizningcha, aniqlangan moliyaviy xato va kamchiliklar miqdorining ortib borishi budjet tizimida ko‘plab tizimli muammolarning mavjudligiga ishora qilmoqda va bunda moliyaviy xavflarni aniqlashdan, ularni boshqarishga ya‘ni moliyaviy xavflarni aniqlash, baholash, kamaytirish, monitoring qilish va ochiqlash tizimiga o‘tish zaruriyati faqat ortib boradi.

4. Davlat moliyaviy nazoratining moliyaviy xavflarni boshqarish va ichki moliyaviy nazoratga ixtisoslashgan proaktiv konsepsiyasini joriy etish orqali dastlabki va joriy moliyaviy nazorat samaradorligi va sifatini oshirish orqali yakuniy moliyaviy nazorat tadbirlarining manzilliligi va samaradorligini oshirish lozim.

5. O‘zbekistonda amaldagi davlat moliyaviy nazorati tizimi faoliyati qamrovini mavjud inson resurslaridan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqish lozim. Bunda asosiy e‘tiborni budjet tashkilotlarining ichki moliyaviy nazoratini rivojlantirish asosida dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni kuchaytirishga qaratish maqsadga muvofiq.

6. Xorijiy davlatlarning tajribalarini o‘rganish va O‘zbekistonda qo‘llashdan oldin ularni xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni asosida baholash kelgusida boshqa davlatlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklar yoki samarasiz islohotlarni mamlakatimizda takroran amalga oshirish xavfini kamaytiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.22/29.12.2023.I.175.01 ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖАББОРОВ АЗАМАТ АЛИЖОНОВИЧ

**КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ
РАСХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА**

08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (Doctor of Science)

город Ташкент - 2025 год

Тема докторской диссертации зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.2.DSc/1qf923.

Диссертация выполнена в Ташкентском международном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета (www.tiu.uz) и на сайте информационно-образовательного портала "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный консультант:	Рахмонов Дилнозжон Алиджонович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Гулимов Саидхорр Саидхмедович доктор экономических наук, академик Хусанов Шавкат Абдушукурович доктор экономических наук, доцент Алимардонов Мухамади Ибрагимович доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский государственный экономический университет

Защита диссертации состоится "10" 01 2026 г. в 10⁰⁰ на заседании Научного совета DSc.22/29.12.2023.1.175.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском международном университете. Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55, факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрирована под No 1). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55, факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Автореферат диссертации разослан "22" 12 2025 г.
(Регистрационный протокол No 78 от "12" 12 2025 г.).



Н.Х. Жумиев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Х. Абдурахманов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

А.Р. Порон

Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Происходящие в мире экономические неопределенности, непредсказуемость экономических связей, неопределенность во внешней торговле, нестабильность финансовых рынков оказывают негативное влияние на финансовую политику государств. Это, в свою очередь, делает актуальной как никогда необходимость укрепления финансовой дисциплины, создания эффективной и надежной системы финансового контроля за расходованием бюджетных средств для повышения безопасности и стабильности финансовой системы стран. В частности, если обратиться к ситуации по международной оценке коррупционной ситуации, то можно увидеть, что "с 2012 года показатели 148 из 180 стран не изменились или снизились, результаты двух третей стран ниже половины максимальной оценки (50 баллов)"¹. Также, по данным Верховного суда Республики Узбекистан, в 2024 году количество лиц, совершивших преступления хищения путем присвоения или растраты, увеличилось почти в четыре раза по сравнению с 2020 годом². В данном случае обеспечение адресного, целевого и эффективного использования бюджетных расходов, функциональное и организационное совершенствование системы государственного финансового контроля и укрепление финансовой дисциплины служат обеспечению стабильности государственных финансов.

В мире проводятся исследования, направленные на оценку этапов осуществления государственного финансового контроля, распределения полномочий и ответственности, управления финансовыми рисками, эффективности расходов государственного бюджета. В данных исследованиях приоритет отдается таким научным направлениям, как совершенствование методологических и организационных механизмов государственного финансового контроля, развитие этапов осуществления финансового контроля, методов управления финансовыми рисками, целевое и эффективное расходование бюджетных средств, оценка эффективности системы их использования, взаимная координация деятельности соответствующих структур, цифровизация финансового контроля, совершенствование системы ведения статистики результатов. Также ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями активизируются такие научные направления, как научное изучение изменений в мировой экономике, создание новой архитектуры системы государственного финансового контроля в международном масштабе, необходимых и дополнительных методов и моделей ее организации в условиях финансовой интеграции.

¹ www.transparency.org - официальный сайт международной организации "Transparency international". Отчет "Corruption perceptions index 2024." Дата обращения - 20 февраля 2025 года.

² www.sud.uz - официальный сайт Верховного суда Республики Узбекистан. Дата обращения - 20 апреля 2025 года.

В Узбекистане быстрая и параллельная трансформация финансового контроля расходов государственного бюджета в направлении финансовых и экономических реформ является актуальным вопросом обеспечения безопасности и стабильности государственного финансового обеспечения. При этом актуальным является расширение охвата предварительного и текущего финансового контроля путем пересмотра состава, функций и институциональных полномочий действующих органов государственного финансового контроля, интеграции в их состав систем, максимально приближенных к финансовым операциям, предотвращения ошибок и недостатков путем внедрения системы управления финансовыми рисками. С этой точки зрения адаптация системы государственного финансового контроля к международно признанным моделям требует проведения научных исследований, направленных на научное исследование оптимального состояния использования всех видов финансового контроля, качественную оценку финансового контроля бюджетных расходов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан NoУП-6300 "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы государственного финансового контроля" от 27 августа 2021 года, NoУП-269 "О мерах по реализации административных реформ Нового Узбекистана" от 21 декабря 2022 года, NoУП-158 "О Стратегии "Узбекистан - 2030" от 11 сентября 2023 года, NoУП-14 "О первоочередных организационных мерах по эффективному налаживанию деятельности республиканских органов исполнительной власти" от 25 января 2023 года, NoУП-100 "О дополнительных мерах по усилению финансового контроля за использованием бюджетных средств" от 10 июля 2024 года, NoУП-105 "О мерах по внедрению современных услуг Комитетом казначейской службы при Министерстве экономики и финансов и внебюджетным Пенсионным фондом" от 26 июня 2025 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан NoПП-128 "О дальнейшем повышении эффективности расходов Государственного бюджета Республики Узбекистан и совершенствовании деятельности органов государственного финансового контроля" от 14 февраля 2022 года, Постановлении Кабинета Министров No210 "Об утверждении стратегии совершенствования системы управления государственными финансами на 2025-2030 годы" от 8 апреля 2025 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики."

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³.

Многогранные исследовательские работы, связанные с расходами государственного бюджета и направлениями совершенствования их финансового контроля со стороны государства, проводятся престижными научными, аналитическими центрами и высшими учебными заведениями мира, международными и региональными организациями, связанными с данной сферой, в том числе международными финансовыми институтами, такими как Всемирный банк (ВБ), Международный валютный фонд (МВФ), Комитет спонсорских организаций Комиссии Тредвея (COSO), Международный институт внутренних аудиторов (ИИВ), Международная организация высших органов аудита (INTOSAI), Главное контрольно-финансовое управление США (GAO), Сообщество взаимного обучения и обмена опытом в области управления государственными расходами (PEMPAL), Программа оценки государственных расходов и финансовой подотчетности (PEFA). Также используются рейтинги и индексы, составляемые международными организациями, такие как Индекс восприятия коррупции (Corruption Perception Index (CPI)), Индекс открытости бюджета (Open Budget Index (OBI)), Индекс экономической свободы (Economic Freedom Index (EFI)), Индекс развития электронного правительства (E-Government Development Index (EGDI)), Индекс человеческого развития (Human Development Index (HDI)), Глобальный инновационный индекс (Global Innovation Index (GII)), Показатели качества государственного управления (Worldwide Governance Indicators (WGI)). Исследования также проводятся международными высшими учебными заведениями, включая Амстердамский университет, Уппсальский университет, Университет Маккуори (Сидней, Австралия), Техасский университет A&M, Роттердамский университет Эразма, Норвежский университет естественных и технических наук, Люксембургский университет, Флорентийский университет, Вильнюсский университет, Университет Южного Уэльса, Каунасский технологический университет, Лондонский университет SOAS, Международный греческий университет (IHU).

На основе научных исследований, проведенных в мире по теме расходов государственного бюджета и направлений совершенствования их финансового контроля, получены следующие результаты, в том числе определено влияние финансового контроля расходов бюджета на фискальную политику (Government financial management. Issues and Country Studies), оценка роли финансового контроля в соблюдении финансового законодательства управляющими, защите активов и обеспечении финансовой дисциплины (Public Financial Management and Internal Control), создание новой системы финансового контроля, позволяющей внедрить контроль расходов на гораздо

